2023- yil yanvar-avgust oylari uchun dastlabki ma’lumot



# NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi
Tel.: (99879) 223-50-43



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

Navoiy viloyatida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladi.

Viloyatida bu borada so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag‘batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-avgust oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **896,5 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning mos davriga nisbatan **113,4 %** ni tashkil etdi.



### TASHQI SAVDO AYLANMASI
*(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)*

**Tashqi savdo aylanmasi**

2023- y.: **896,5** **113,4 %**

(2022- y.: **790,6**)

**Saldo**

2023- y.: **- 41,5** (2022- y.: **- 31,3**)

**Eksport**

2023- y.: **427,5** ***112,6 %***

(2022- y.: **379,7**)

*Tovarlar:* ***426,8***

*Xizmatlar:* ***0,7***

**Import**

2023- y.: **469,0** **114,1 %**

(2022- y.: **411,0**)

*Tovarlar:* ***453,6***

*Xizmatlar:* ***15,4***

**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

Navoiy viloyati jahonning **66** ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Fransiyada (**29,2** %), Rossiya Federatsiyasida (**16,3** %), Xitoy Xalq Respublikasida (**14,1** %), Hindistonda **(5,3),** va Qozog‘istonda (**5,2** %) qayd etilgan.

## NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR

*(2023- yil yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)*

| Davlatlar | TSA | Eksport | Import | Ulushi, % da |
|---|---|---|---|---|
| Fransiya | 261,8 | 257,4 | 4,4 | 29,2 |
| Rossiya Federatsiyasi | 146,0 | 34,5 | 111,5 | 16,3 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 126,2 | 10,3 | 115,9 | 14,1 |
| Hindiston | 48,2 | 40,2 | 8,0 | 5,3 |
| Qozog‘iston | 47,3 | 12,6 | 34,7 | 5,2 |
| Turkiya | 42,5 | 21,9 | 20,6 | 4,7 |
| Latviya | 38,7 | 0,1 | 38,6 | 4,3 |
| Yaponiya | 34,5 | 0,0 | 34,5 | 3,8 |
| Germaniya | 19,1 | 0,0 | 19,1 | 2,1 |
| Litva | 17,6 | 6,5 | 11,1 | 1,9 |

*O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi* ***(keyingi o'rinlarda TIF TN)*** *bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi* ***(keyingi o'rinlarda – XSST)*** *ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni* ***XSST*** *bo'yicha kodlashtirish,* ***TIF TN*** *va* ***XSST*** *o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.





Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qoshni davlatlar Qozogiston, Afg'oniston va Qirg'iz Respublikasi bilan TSA da so'ngi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'ngi uch yilda TSA Qozog'iston, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qoshni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Fransiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston, Turkiya, Latviya, Yaponiya, Germaniya va Litva hissasiga tog'ri kelgan.

## NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

*(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)*

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Fransiya** | **2,5** | **62,2** | **261,8** |
| *Eksport* | *-* | *60,4* | *257,4* |
| *Import* | *2,5* | *1,8* | *4,4* |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **142,1** | **185,2** | **146,0** |
| *Eksport* | *38,8* | *57,6* | *34,5* |
| *Import* | *103,3* | *127,6* | *111,5* |
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **135,1** | **143,1** | **126,2** |
| *Eksport* | *69,2* | *27,5* | *10,3* |
| *Import* | *65,9* | *115,6* | *115,9* |
| **Qozog'iston** | **40,5** | **61,2** | **47,3** |
| *Eksport* | *10,2* | *15,5* | *12,6* |
| *Import* | *30,3* | *45,6* | *34,7* |
| **Latviya** | **0,3** | **1,3** | **38,7** |
| *Eksport* | *-* | *-* | *0,1* |
| *Import* | *0,3* | *1,3* | *38,6* |
| **Turkiya** | **51,2** | **51,8** | **42,5** |
| *Eksport* | *25,0* | *32,6* | *21,9* |
| *Import* | *26,2* | *19,2* | *20,6* |
| **Yaponiya** | **15,6** | **4,1** | **34,5** |
| *Eksport* | *-* | *-* | *-* |
| *Import* | *15,6* | *4,1* | *34,5* |
| **Hindiston** | **1,8** | **14,5** | **48,2** |
| *Eksport* | *0,1* | *-* | *40,2* |
| *Import* | *1,7* | *14,5* | *8,0* |
| **Koreya Respublikasi** | **18,2** | **15,7** | **15,4** |
| *Eksport* | *0,1* | *-* | *0,1* |
| *Import* | *18,1* | *15,7* | *15,3* |
| **Litva** | **65,2** | **13,5** | **17,6** |
| *Eksport* | 9,7 | *9,3* | *6,5* |
| *Import* | *55,5* | *4,1* | *11,1* |

*Davomi*

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Afg'oniston** | **5,8** | **7,8** | **14,7** |
| *Eksport* | *5,8* | *7,8* | *14,7* |
| *Import* | - | - | - |
| **Germaniya** | **10,1** | **12,7** | **19,1** |
| *Eksport* | - | - | - |
| *Import* | *10,1* | *12,7* | *19,1* |
| **Qirg'iz Respublikasi** | **3,5** | **17,9** | **9,8** |
| *Eksport* | *3,1* | *16,2* | *7,7* |
| *Import* | *0,4* | *1,7* | *2,1* |
| **Daniya** | **-** | **-** | **8,3** |
| *Eksport* | - | - | *7,3* |
| *Import* | - | - | *1,0* |
| **Eron Islom Respublikasi** | **6,4** | **10,0** | **6,1** |
| *Eksport* | *1,3* | *2,9* | *2,2* |
| *Import* | *5,1* | *7,1* | *3,9* |
| **Chexiya Respublikasi** | **17,8** | **1,4** | **4,8** |
| *Eksport* | *0,2* | - | - |
| *Import* | *17,5* | *1,4* | *4,8* |
| **Avstriya** | **0,4** | **1,4** | **3,9** |
| *Eksport* | - | - | - |
| *Import* | *0,4* | *1,4* | *3,9* |
| **Belarus** | **6,2** | **1,6** | **3,5** |
| *Eksport* | *1,1* | *0,7* | *2,7* |
| *Import* | *5,0* | *0,9* | *0,8* |
| **Buyuk Britaniya** | **4,0** | **0,2** | **7,9** |
| *Eksport* | - | - | - |
| *Import* | *4,0* | *0,2* | *7,9* |
| **Tojikiston** | **1,6** | **4,3** | **3,4** |
| *Eksport* | *1,4* | *4,3* | *3,3* |
| *Import* | *0,2* | - | *0,1* |

# NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

*(2023- yil yanvar-avgus*

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Navoiy viloyati** | **896 467,2** | **113,4** | **100,0** |
| Navoiy sh. | 564 399,9 | 133,9 | 63,0 |
| Zarafshon sh. | 6 091,0 | 105,6 | 0,7 |
| G'ozg'on sh. | 3 835,6 | 4,5 b. | 0,4 |
| *tumanlar:* | | | |
| Karmana t. | 216 373,6 | 86,2 | 24,1 |
| Konimex t. | 1 892,5 | 7,6 b. | 0,2 |
| Qiziltepa t. | 44 051,3 | 77,8 | 4,9 |
| Navbahor t. | 30 582,8 | 112,5 | 3,4 |
| Nurota t. | 7 205,1 | 117,1 | 0,8 |
| Tomdi t. | 1 024,4 | 56,2 | 0,1 |
| Uchquduq t. | 7 687,7 | 57,7 | 0,9 |
| Xatirchi t. | 12 838,3 | 2,3 b. | 1,4 |
| Bo'linmaydigan hajm | 485,0 | - | 0,1 |

**Eng yuqori haj...**
ming AQSH dollari




ming AQSH dollari




Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **63,0** % ulush bilan **564 399,9** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,1** % ulush bilan **1 024,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

## NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

*(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)*






Tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yil yanvar-avgust oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **23,8** % ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-avgust oylarida 2022- yilning shu davriga nisbatan **139,3** % ni, jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi **76,2** % ni tashkil etdi.

# NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI

Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi **427,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati **112,6** % ni tashkil etdi.

| | |
|---|---|
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 5,0 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 3,3 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 3,1 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 0,1 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 71,0 |
| Sanoat tovarlari | 13,4 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 1,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 2,4 |
| Xizmatlar | 0,2 |

Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (**71,0** %), sanoat tovarlari (**13,4** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**5,0** %) hissasiga tog‘ri kelmoqda.



## NAVOIY VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI

*(yanvar-avgust, yillar kesimida)*

| XSST tarkibi | Mln. AQSH dollari | | O‘tgan yilga nisbatan, % da | Umumiy hajmga nisbatan % da |
|---|---|---|---|---|
| | 2022 | 2023 | | |
| **Jami eksport** | **379,7** | **427,5** | **112,6** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 12,1 | 21,4 | 176,7 | 5,0 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,1 | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 33,6 | 14,1 | 41,9 | 3,3 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 5,3 | 13,4 | 2,5 b. | 3,1 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 0,3 | 0,6 | 199,2. | 0,1 |
| Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 231,4 | 305,4 | 132,0 | 71,0 |
| Sanoat tovarlari | 82,6 | 57,3 | 69,4 | 13,4 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,1 | 4,5 | 58,0 b. | 1,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 12,4 | 10,1 | 81,5 | 2,4 |
| Xizmatlar | 1,8 | 0,8 | 40,7 | 0,2 |

2023- yilning yanvar-avgust oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2022- yilning mos davriga nisbatan sezilarli o‘zgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta’kidlash joizki, 2022- yilning mos davriga nisbatan mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar, hayvon va o‘simliklar moylari, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlarning eksport tarkibida o‘sish kuzatildi.




**NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMLARI DINAMIKASI**
*(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)*




Navoiy viloyatida 2023- yil yanvar-avgust oylarida eksport hajmi **427,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

*(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)*




2023- yilning yanvar-avgust oylarida MDH mamlakatlariga **63,5** mln. AQSH doll. tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **14,9** % ini tashkil etdi.

## NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI *(2023- yil yanvar-avgust, % da)*

| | |
|---|---|
| 60,2 | Fransiya |
| 9,4 | Hindiston |
| 8,1 | Rossiya Federatsiyasi |
| 5,1 | Turkiya |
| 3,4 | Afg'oniston |
| 2,9 | Qozog'iston |
| 2,4 | Xitoy |
| 8,2 | Boshqa davlatlar |

2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Fransiya (eksport umumiy hajmining **60,2** %), Hindiston (**9,4** %), Rossiya Federatsiyasi (**8,1** %), Turkiya (**5,1** %), Afg'oniston (**3,4** %), Qozog'iston (**2,9** %) va Xitoy (**2,4** %) saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **90,9** % ni tashkil etmoqda.



# NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI *(yanvar-avgust, yillar kesimida)*

| Davlatlar | Ming AQSH dollari | | O‘sish sur’ati, % da | Egallab turgan o‘rni |
|---|---|---|---|---|
| | 2022 | 2023 | | |
| Fransiya | **60 427,3** | **257 370,9** | **4,2 b.** | **1** |
| Hindiston | - | 40 228,8 | - | 2 |
| Rossiya Federatsiyasi | 57 581,4 | 34 511,2 | 59,9 | 3 |
| Turkiya | 32 551,3 | 21 907,6 | 67,3 | 4 |
| Afg‘oniston | 7 793,9 | 14 690,4 | 188,4 | 5 |
| Qozog‘iston | 15 531,5 | 12 585,2 | 81,0 | 6 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 27 500,9 | 10 262,3 | 37,3 | 7 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 16 177,6 | 7 667,4 | 47,3 | 8 |
| Daniya | - | 7 326,1 | - | 9 |
| Litva | 9 308,0 | 6 484,7 | 69,6 | 10 |
| Tojikiston | 4 253,4 | 3 289,3 | 77,3 | 11 |
| Belarus | 700,9 | 2 671,1 | 3,8 b. | 12 |
| Eron Islom Respublikasi | 2 875,1 | 2 173,2 | 75,5 | 13 |
| Turkmaniston | 22 327,8 | 1 684,4 | 7,5 | 14 |
| Italiya | 91,3 | 1 538,1 | 16,8 b. | 15 |
| Ozarbayjon | 1 015,4 | 657,6 | 64,7 | 16 |
| Pokiston | 351,0 | 656,2 | 186,9 | 17 |
| Polsha | 1 534,1 | 487,2 | 31,7 | 18 |
| Ukraina | 404,6 | 311 | 76,8 | 19 |
| Estoniya | 9,8 | 128,7 | 13,2 b. | 20 |

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘sishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma’lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni **36** tani tashkil etdi.

# NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

*(2023- yil yanvar-avgust)*

| | Hajm Ming AQSH dollari | O‘sish sur’ati, % da | |
|---|---|---|---|
| **Navoiy viloyati** | **427 476,4** | **112,6** | **100,0** |
| Navoiy sh. | 327 297,7 | 125,1 | 76,6 |
| Zarafshon sh. | 1 548,9 | 3,3 b. | 0,4 |
| G'ozg'on sh. | 1 667,6 | 3,8 b. | 0,4 |
| *tumanlar:* | | | |
| Karmana t. | 41 108,9 | 83,9 | 9,6 |
| Konimex t. | 503,1 | 2,4 b. | 0,1 |
| Qiziltepa t. | 26 540,7 | 66,6 | 6,2 |
| Navbahor t. | 16 390,5 | 86,5 | 3,7 |
| Nurota t. | 4 875,1 | 125,3 | 1,1 |
| Tomdi t. | 160,9 | 22,3 | 0,1 |
| Uchquduq t. | 872,0 | 112,4 | 0,2 |
| Xatirchi t. | 6 336,5 | 178,6 | 1,5 |
| Bo‘linmaydigan hajm | 174,5 | 57,3 | 0,1 |




Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **76,6** % ulush bilan **327 297,7** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksporti tarkibida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,1** % ulush bilan **160,9** ming AQSH dollarini tashkil etdi.




## TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORT DINAMIKASI
(yanvar-avgust, % da)

| XSST tarkibi | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 4,6 | 3,2 | 5,2 |
| Ichimliklar va tamaki | | 0,02 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg‘idan tashqari | 6,8 | 8,8 | 3,5 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 0,5 | 1,4 | 3,1 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | | 0,1 | 0,1 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 62,7 | 60,9 | 71,0 |
| Sanoat tovarlari | 20,0 | 21,7 | 13,2 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,1 | 0,0 | 1,2 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 2,7 | 3,3 | 2,5 |
| Xizmatlar | 2,5 | 0,5 | 0,2 |

2023- yil yanvar-avgust oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘ngi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlari ulushi **9,1** punktga oshib **71,0** % ni, mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar ulushi **2,2** punktga oshib **3,1** % ni tashkil etdi.

## NAVOIY VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI
*(2023- yil yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)*

| XSST tarkibi | Fransiya | | Rossiya Federatsiyasi | | Turkiya | | Afg'oniston | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2022- y. | 2023- y. | 2022- y. | 2023- y. | 2022- y. | 2023- y. | 2022- y. | 2023- y. |
| **Jami eksport** | **60,4** | **236,1** | **48,9** | **32,2** | **29,0** | **19,9** | **7,2** | **12,3** |
| shu jumladan: | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | - | - | 0,5 | 0,1 | 0,2 | - | 6,2 | 11,9 |
| Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari | - | - | 20,7 | 10,2 | 1,6 | 1,0 | - | - |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | - | - | 0,3 | 0,1 | 2,9 | 5,3 | 0,8 | - |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | - | - | - | - | - | - | 0,2 | 0,4 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 60,4 | 235,9 | 0,3 | 1,7 | - | - | - | - |
| Sanoat tovarlari | - | - | 18,4 | 11,2 | 23,8 | 13,6 | - | - |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | - | - | - | 3,9 | - | - | - | - |
| Turli xil tayyor buyumlar | - | 0,2 | 7,9 | 4,6 | - | - | - | - |
| Xizmatlar | - | - | 0,8 | 0,4 | 0,5 | - | - | - |

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hamda sanoat tovarlari kiradi.

## XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
*(2023- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)*




Xizmatlar eksporti hajmi **0,7** mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **0,2** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **35,4** % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (**58,3** %), safarlar (turizm xizmatlari) (**30,6** %) va transport xizmatlari (**11,1** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI
*(2023- yil yanvar-avgust, ming AQSH dollari)*

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **7 263,0** ming AQSH dollar qiymati **10 854,0** tonna meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2022- yilning mos davriga nisbatan **121,7** % ni tashkil qildi. Shundan salmog'i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti hajmi Xatirchi tumanida **3 035,9** ming AQSH dollarini, Qiziltepa tumanida **1 971,7** ming AQSH dollarini, Karmana tumanida **754,5** ming AQSH dollarini va Navbahor tumanida **429,4** ming AQSH dollarini tashkil etmoqda.





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI *(2023- yil yanvar-avgust)*

| | | | |
|---|---|---|---|
| Qozog'iston | 6 507,8 | 2 900,4 | 39,9 |
| Xitoy | 2 866,1 | 2 888,0 | 39,8 |
| Pokiston | 166,7 | 656,2 | 9,0 |
| Litva | 541,3 | 259,8 | 3,6 |
| Estoniya | 297,9 | 128,7 | 1,8 |
| Eron Islom Respublikasi | 90,0 | 102,0 | 1,4 |
| Latviya | 232,1 | 87,3 | 1,2 |
| Rossiya Federatsiyasi | 57,1 | 80,3 | 1,1 |
| Isroil | 11,0 | 62,6 | 0,9 |
| Aljir | 36,0 | 52,3 | 0,7 |
| Koreya Respublikasi | 48,0 | 45,4 | 0,6 |

** qiymat ifodasidan*

2023-yil yanvar –avgust oylarida Meva va sabzavotlar eksportida katta hajmda Qozog'iston **(39,9%)**, Xitoy **(39,8)**, Pokiston **(9,0%)** davlatlar hissasiga to'g'ri keldi

# NAVOIY VILOYATINING IMPORTI

2023- yil yanvar-avgust oylarida import hajmi **469,0** mln. AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **114,1** % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**47,2** %), sanoat tovarlari (**25,8** %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga oxshash mahsulotlar (**12,0** %) ga to‘g‘ri keldi.

## XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI

*(2023- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)*

| | | |
|---|---|---|
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar **4,5** | Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari **2,2** | Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar **0,4** |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar **0,8** | Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar **12,0** | Sanoat tovarlari **25,8** |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari **47,2** | Turli xil tayyor buyumlar **3,8** | Xizmatlar **3,3** |

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar hajmi **453,6** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **15,4** mln. AQSH dollariga yetdi.



## NAVOIY VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI

*(yanvar-avgust, yillar kesimida)*

| XSST tarkibi | Mln. AQSH dollari | | O‘sish sur’ati, % da | Umumiy hajmga nis-batan. % da |
|---|---|---|---|---|
| | 2022 | 2023 | | |
| **Jami import** | **411,0** | **469,0** | **114,1** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 9,1 | 21,3 | 2,2 b. | 4,5 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 10,0 | 10,3 | 112,5 | 2,2 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 9,5 | 1,8 | 18,7 | 0,4 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 1,4 | 3,8 | 2,7 b | 0,8 |
| Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 70,2 | 56,2 | 80,2 | 12,0 |
| Sanoat tovarlari | 120,9 | 120,9 | 100,0 | 25,8 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 150,3 | 221,5 | 147,3 | 47,2 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 30,6 | 17,7 | 58,0 | 3,8 |
| Xizmatlar | 9,0 | 15,4 | 171,2 | 3,3 |

Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**47,2** %), sanoat tovarlari (**25,8** %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (**12,0** %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**4,5** %) hissasiga to‘g‘ri keladi.

Import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiy hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2022- yilning mos davriga nisbatan hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar (**2,7 barobar**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**2,2 barobar**), xizmatlar (**71,2** %), mashinalar va transport asbob-uskunalar (**47,3** %) va n ooziq-ovqat mahsulotlari (**12,5** %) o'sgan.

**NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMLARI DINAMIKASI**
*(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari)*




Navoiy viloyatida 2023- yil yanvar-avgust oylarida import hajmi **469,0** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

*(yanvar-avgust, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)*

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko‘rsatkich **32,0** va **68,0** % ni tashkil etdi.




Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Latviya, Qozog'iston, Yaponiya, Turkiya va Germaniya) jami importning **80,0** % ini tashkil qiladi, bu **374,9** mln. AQSH dollarini tashkil etadi.

## NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI *(2023- yil yanvar-avgust, % da)*

| | |
|---|---|
| 24,7 | Xitoy Xalq Respublikasi |
| 23,8 | Rossiya Federatsiyasi |
| 8,2 | Latviya |
| 7,4 | Qozog`iston |
| 7,4 | Yaponiya |
| 4,4 | Turkiya |
| 4,1 | Germaniya |
| 19,6 | Boshqa davlatlar |



# NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O‘SISH SUR’ATLARI

*(yanvar-avgust, yillar kesimida)*

| Davlatlar | Ming AQSH dollari | | O‘sish sur’ati, % da | Umumiy hajmdagi o‘rni |
|---|---|---|---|---|
| | 2022 | 2023 | | |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 27 500,9 | 115 899,9 | 4,2 b. | 1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 57 581,4 | 111 518,9 | 1,9 b. | 2 |
| Latviya | - | 38 610,2 | - | 3 |
| Qozog‘iston | 15 531,5 | 34 678,1 | 2,2 b. | 4 |
| Yaponiya | - | 34 542,2 | - | 5 |
| Turkiya | 32 551,3 | 20 585,5 | 63,2 | 6 |
| Germaniya | - | 19 080,7 | - | 7 |
| Koreya Respublikasi | 7,1 | 15 307,8 | 2156 b. | 8 |
| Litva | 9 308,0 | 11 132,7 | 119,6 | 9 |
| Hindiston | - | 7 977,2 | - | 10 |
| Buyuk Britaniya | 0,1 | 7 926,1 | - | 11 |
| Chexiya Respublikasi | - | 4 753,0 | - | 12 |
| Fransiya | 60 427,3 | 4 448,2 | 7,4 | 13 |
| Eron Islom Respublikasi | 2 875,1 | 3 891,1 | 135,2 | 14 |
| Avstriya | - | 3 889,1 | - | 15 |
| Kanada | 117 641,8 | 2 858,9 | 2,4 | 16 |
| Finlyandiya | - | 2 811,9 | - | 17 |
| Polsha | 1 534,1 | 2 491,4 | 162,4 | 18 |
| Estoniya | 9,8 | 2 182,3 | 222,7 b. | 19 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 16 177,6 | 2 106,4 | 13,2 | 20 |

2023- yil yanvar-avgust oylari yakuni bo‘yicha **56** ta davlatlar bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

## NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

*(2023- yil yanvar-avgust)*

| | Hajm Ming AQSH dollari | O‘sish sur’ati, % da | |
|---|---|---|---|
| **Navoiy viloyati** | **468 990,8** | **114,1** | **100,0** |
| Navoiy sh. | 237 102,2 | 148,4 | 50,6 |
| Zarafshon sh. | 4 542,1 | 85,6 | 0,9 |
| G'ozg'on sh. | 2 168,0 | 5,2 b. | 0,5 |
| *tumanlar:* | | | |
| Karmana t. | 175 264,7 | 86,7 | 37,4 |
| Konimex t. | 1 389,4 | 33,5 b. | 0,3 |
| Qiziltepa t. | 17 510,6 | 104,4 | 3,7 |
| Navbahor t. | 14 192,3 | 172,0 | 3,0 |
| Nurota t. | 2 330,0 | 102,9 | 0,5 |
| Tomdi t. | 863,5 | 78,3 | 0,2 |
| Uchquduq t. | 6 815,7 | 54,3 | 1,5 |
| Xatirchi t. | 6 501,5 | 3,3 b. | 1,4 |
| Bo‘linavgustdi gan hajm | 310,8 | 68,3 | 0,06 |




Viloyatning import tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **50,6** % ulush bilan **237 102,2** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Tomdi tumani **0,2** % ulush bilan **863,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi.




## TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI
(yanvar-avgust, % da)

| XSST tarkibi | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100,0** | **100,0** | **100,0** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 3,3 | 2,4 | 4,5 |
| Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg‘idan tashqari | 0,7 | 2,2 | 2,2 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 0,1 | 2,3 | 0,4 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 0,1 | 0,3 | 0,8 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 10,9 | 17,1 | 12,0 |
| Sanoat tovarlari | 15,2 | 29,4 | 25,8 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 57,4 | 36,6 | 47,2 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 7,1 | 7,5 | 3,8 |
| Xizmatlar | 5,2 | 2,2 | 3,3 |

2023- yil yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatdiki, mashinalar va transport asbob-uskunalarida 2022- yilning mos davriga nisbatan importning ulushi **36,6** % dan **47,2** % gacha, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlarda importining ulushi **2,4** % dan **4,5** % gacha, xizmatlarda esa **2,2** % dan **3,3** % gacha o‘sdi.

# XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

*(2023- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)*

2023- yil yanvar-avgust oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **15,4** mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining **3,3** % ini tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**56,4** %), safarlar (turizm xizmatlari) (**0,1** %) va boshqa xizmatlar (**43,5** %) dan iborat bo'ldi.




Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon boʻlmoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam oʻrin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.